

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6379194>

## SALIB YURISHLAR VA UNING OQIBATLARI

**Xoliqberdiyev Shohjahon O'ktam o'g'li**

**Raxmatullayev Diyorbek Uralovich**

**Ergashev Sherali Musurmon o'g'li**

**Esanov Hayitali Juma o'g'li**

**Anatatsiya:** *Salib yurishlarining boshlanishiga asosiy sabablar ikki toifaga , ya'ni bir tomondan boylik orttirish bo'lsa , ikkinchi tomondan Quddusdagi << Iso payg'ambar qabri >> ni qaytarib olish bo'lgan. Yevropa qirollari uchun bu yangi yer – mulklarga ega chiqish vositasi bo'ladi. Asosan Yevropaning kuchli davlatlari hisoblangan Germaniya , Fransiya va Angliya ritsarlari qatnashgan yurishlar, kuchli qo'shin to'planganiga qaramasadan ularning qirollari o'rta sidagi nizolar natijasida barbod bo'ladi. Orada bir necha bor Quddusni egallagan bo'lsalarda , biroq doimiy urushlar ta'sirida uni tezda musulmonlarga topshirib quyar edilar. So'nggi salib yurishidan so'ng Yevropaning o'zida ham rivojlanish jarayonlari boshlanadi va qirollar bu yurishdan ma'no yuqligiga ishonch hosil qilishadi. Shunday bo'lsada Yevropa xalqi Sharqdan ko'p narsalarni qabul qiladi.*

**Kalit so'zlar:** Falastin , Suriya , Kichik Osiyo , Sitsiliya , Ispaniya , Klyuni , Reyn , Dunay , Quddus , Lyudovik IX , Kondrad III , Filipp II , Antioxiya , Tripoli , Edessa , Tir , Sidon , Akra , Tevton , Nemis , Qilichbozlar .

Yevropada XI asrdan shaharlarning yuksala borishi davomida ichki va tashqi savdo rivojlanadi. Ayni savdo-sotiq ortiqcha dehqonchilik mahsulotlarin , qimmatbaho buyumlar , gazlama , qurol-yarog'lar, ziravorlarga yoki almashinuvlarning asosiy vositasi- pulo aylantirish mumkin edi. Senyorlarda boylikka, hashamlarga talab kuchayib, uni qondirishning yagona usuli dehqonlarga taziyqni kuchaytirish bulib qoldi. Yevropadagi mayorat , yermulkning maydalashmasligi , uni katta o'g'ilga qolishi udumining mavjudligi , ko'plab ritsarlar hohish – istagiga qarshi oddiy hayot kechirishga majbur etardi. Vujudga kelgan vaziyatdan norozi ritsarlar o'z toifalariga loyiq tukin hayot kechirish uchun har qanday vositadan qaytmasligi ma'lum buladi. Ritsarlar harbiy bulinmalari xizmat izlab senyordan senyorga o'tar , mojarolarga aralashar, bazida ochiqchasiga yultusarlik va hatto monastrlarga hujum qilar , savdogarlarni talashdan ham qaytmasdi. Yevropadagi siyosiy tarqoqlik sharoitida yagona mustahkam tashkilot katolik cherkovi bulib qoladi. Bu davrda Kilyuni monastri abbatlari say-harakatlari nafaqat cherkovning iqtisodiy qudratini, balki siyosiy mavqeini

oshiradi . Yevropa shaharlari taraqqiyoti turlicha bulsada , ularning barchasi Vizantiya va Sharq mamlakatlari bilan savdodan manfaatdor bulishgan. Qit’ada esaузоq улkalardan keltiriladigan ipak va parcha , qimmatbaho qurol - aslahalar , shishadan ishlangan badiiy buyumlar, ziravorlarga talab oshib borgan. Savdogarning Sharqdan birgina muvofaqiyatli karvoni bazida butun bir mulkka erishishga imkon berardi. [1]

Xalifalik istilo qilgan Falastin , Suriya , Kichik Osiyo , Sitsiliya , Ispaniyada arablar musulmon bulmagan aholiga nisbatan ham yaxshi munosabatda bulgan . Jumladan, yevropalik xristian ziyoratchilar VIII asrdanoq “ Muqaddas yer ” – Falastinga erkin borib kelishgan Xi asrdan ziyoratchilar tobora kupayib borib, ularning bir qismi Reyn va Dunay daryolari orqali , Vengriyadan Bolqonga, undan Kichik Osiyo va Suriyaga o’tsa, boshqalari Italiya va Vizantiyadan dengiz orqali kemalarda ziyyaratga borishgan . XI asrning ikkinchi yarmidan Saljuqiy turklarning Yaqin Sharqni istilo qilishi , ularning turli beyliklari orasida nizolar vaziyatni salbiy tomonga o’zgartiradi . Ziyyoratchilar uchun Quddus uchun yul deyarli yopiladi. Shundan so’ng katta davrni o’z ichiga olgan Salib yurishlari boshlanadi. Salib yurishlari deganda Yevropa feodallarining XI asr oxiridan to XIII oxirigacha o’zoq vaqt davomida Yaqin Sharqda – Suriya, Falastin, Misr, Bolqon yarim oroli, Kipr va boshqa joylarda olib borgan harbiy – kolonizatsiya ekspeditsiyalari kuzda tutiladi . Tashqi jihatdan bu ekspeditsiyalar diniy ruxdagi ekspeditsiyalar edi , chunki katolik cherkovi bu kurashni – butning – yarim oyga qarshi, xristianlikning - islomga qarshi kurashidir , deb elon qilgan edi; yurishlardan muddao Falastinni kofirlardan xalos qilish va xristianlar etiqodicha , Quddusdag'i << Iso payg'ambar qabri>> ni xristianlarga qaytarib olib berishdir dbe, rasmiy elon qiladi. Haqiqatda esa , bu bosqinchilik yurishlaridan iborat bulib, ularda yevropalik baronlar va ritsarlar hech tap tortmay , Sharqning shaharlarini taladilar , butun – butun knyazlik va qirolliklarini bosib oldilar, o’zlari uchun feudal rentasining yangi soliq tulovchilarini qulga kiritdilar. [2]

XI asrda Sharqiy Yevropada feodallarning hujum qilishi uchun qulay bir vaziyat vujudga kelgan edi. Bir vaqlar qudratli deb hisoblangan Bog'dod xalifaligi yoki arab xalifaligi salibchilar hujumini qaytarishi mumkin edi , lekin u 1055- yilda amalda barham topgan edi. Boshqa bir yirik davlat – Vizantiya ham KOmninlar davrida og'ir kunlarni boshidan kechirmoqda edi. 1071-yilda turklar Mansikert shahri yonida Vizantiyaliklarni qattiq mag'lubiyatga uchratadilar. Vizantiya imperatori Aleksey Komnin XI asrning 80-90 – yillarda turklarga qarshi yordam so’rab , papaga va Germaniya imperatoriga bir necha bor murojat etdi. Ilgari yakkayu - yagona bo’lgan xristian cherkovi 1-54- yilda ikkita raqib qismga – sharqiy ( provaslav) va g’arbiy (katolik) cherkovlarga ajralib ketgan edi , Aleksey Komnin siyosiy maqsadni ko’zlab papa bilan bu cherkovlarni qaytadan birlashtirishga ham tayyor edi. Fransiyaga 1095-yil yozida Alp tog'lari orqali Rim papasi Urban II yetib keladi va 1095-yil

kuzida Janubiy Fransiyaning Klerman shahrida Bosh cherkov yig'ini bo'lib, unda Urban II so'zga chiqib kofirlarga qarshi kurashmoq uchun Sharqqa jo'nab ketishga da'vat etdi. Urbanning asosiy da'vat “ Iso payg'ambar qabri” ni xristianlarga qaytarib olib berish va muqaddas Falastinni xalos etish edi. Papa salib qatnashchilarining gunohida kechishini va'da qildi va Sharqda juda katta boylik kutayotganligiga juda katta urg'u berib, bu yerda kim g'amli va kambag'al bo'lsa , u yerda boy boy bo'ladi ” dedi va 1095-yil 26-noyabr kuni 1- salib yurishi Urban II tomonidan elon qilinadi [3]

Papaning chaqirig'I Yevropada keng yoyildi , yirik mulkdorlar yurishlarda o'z mulklarini kupaytirish vositasini kurdilar. Mayda va o'rta ritsarlar yirik yer – mulkka erishishni orzu qilganlar. Qaram dehqonlar yer va ozodlikni uylaganlar. Bulajak yurishlarda moddiy manfaat katta o'ren tutgan, lekin ommaning ongini chulg'agan va xristianlik jasoratini namoyish etish orzusi undan ham yuqori bulgan. Dastlab dehqonlar yurish boshlaydi. Ular shoshilinchda sotish mumkin bulgan barcha narsalarni arzon garovga pullab , olish zarur bulgan barcha narsalarni qimmatga oladilar. Aholi orasidan o'z vozilari yetishib chiqib , ulardan Amen shahridan bo'lgan Pyotr Pustinnik o'zining notiqligi va jonkuyarligi bilan shuhrat qozonadi. Dehqonlar ritsarlarning keying yozining oxirida boshlanajak yurishlarini kutishni istamaydilar. 1096-yilning erta bahorida Shimoliy va O'rta Fransiyadan , Germaniyaning Reyn buyi viloyatlarida yashagan dehqonlar ziyoratchilarning an'anaviy yuli buylab harakatga tushdilar . Salibchi dehqonlar oilalari bilan tartibsiz, yaxshi quronmagan olomon shaklida, ko'plab yuk aravalari bilan yullarni tuldirib olg'a intilganlar . Salibchilar o'z yullaridagi shaharlarda yashagan yahudiylarni talab , qirg'in qiladilar . [ 1 ]

Salibchi dehqonlar qatorida o'g'irlik va talonchilik qilishdan manfaatdor bulgan betayin , sayyoq – qaroqchilar ham kam emasdi. Bu hol salibchilar << kofirlar >> istiqomat qiladigan yerlarga yetib bormasdanoq ayon buligan edi . Jumladan , salibchilar Reyn daryosi buyidagi shaharlardan o'tib keta turib , u yerda ( Kyoln , Maynist va boshqa shaharlarda ) tyugromlar ujishtiradilar . Keyi ular Venning ko'plari yulda halok buladi . Agar salibchilar Shimoliy Suriya chegarasida ittifoqchilarga duch kelmaganlarida , bu yurish tamomila yakun topardi . Bu ittifoqchilar armanlar bulib chiqdi. Kichik Armaniston deb atalgan o'lka salibchilar yordamidan manfaatdor edi , chunki u Vizantiya bilan ham , turklar bilan ha g'oyat darajada dushmanlik munosabatida edi. Salibchilar Edessani bosib olishni kuzladilar , chunki Edessa Suriya bilan Falastinni shimol tomonidan turklar hujumidan quriqlab turardi . 1098- yil salibchilar << Sharq poytaxti >> - Antioxiyani bosib oldilar , Baemund Tarenskiy Antioxiyaga knyaz bulib oldi. Uchinchi yirik feodal – Reymund Tuluziskiyiga Tripoli oblasti tegdi. Nihoyat , 1099- yil yozida salibchilar Quddusga yetib oldilar. 1099-yil 15-iyulda ular shturim bilan Quddusni qulga kiritdilar. Salibchilar shaharni qattiq taladilar va uning aholisining katta qismini , musulmonlarni ham, xristianlarni ham ayamay vaxshiyarcha qirib tashladilar. Bu

istilolar natijasida salibchilar O'rta dengizning butun sharqiy qismini , yani ilgarigi Finikiya , Suriya va Falastinni egalladilar. Quddus , Antioxiya , Tripoli , Edessa , Tir , Sidon , Akra shaharlari ularning quliga o'tdi. Salibchilarning shimoldan janubga tomon tor mintaqasi bulib chuzilib ketgan mulklarining uzunligi 1200 km ga yetar edi. [ 2 ]

Salibchilar o'zlarini o'rab turgan musulmonlarning hujumlariga tayyor turish uchun diniy – ritsarlik ordenlari tashkil qildilar. Ordenlar bevosita papaga buysinardi. Falastinda va Yevropaning turli mamlakatlarida ordenlarning yer – mulklari bulib , ular shu yer – mulklardan keladiga daromad hisobiga yashar edilar. 1119- yilda birinchi bo'lib , Tampliyerlar ordeni Ierussalimda birinchi salib yurishidan so'ng Falastinda va Suriyada salibchilar davlatini mustahkamlash maqsadida asos solingan. Ordin qirolga qarshi chiqqani uchun Filipp IV Chiroli ga qaram bulgan papa Kliment V Tampliyerlar ordenini 1312-yilda bekor qiladi. Ikkinchi orden XI asrning II- yarmida Falastinda Quddusdagi avliyo Ioann nomi bilan ataluvchi , italiyan ritsarlari ordeni. Bu ordenning ikkinchi nomi gospitalerlar deb atalib , ular ziyoratchilar davolanadigan – kasalxonalarda xizmat qilishni maqsad qilib quygan edilar. 1190-yilda nemislarning uchinchi bir ordeni Nemis yoki Tevton ordeni Falastinda tashkil etildi, 1211-yilda ularning bir qismi qipchoqlarga qarshi kurashish uchun Vengriyaga o'tadilar. Va 1237-yilda Qilichbozlar ordeni bilan birlashadilar. [3]

XII asrdan musulmon amirliklari birlashib , salibchilar o'z mulklarini yuqota boradilar. Mosul amiri 1144-yili Edessani egallaydi. Bu voqeadan so'ng Antioxiya xavf ostida qolib , Yevropada ikkinchi salib yurishlari ( 1147-1149 –yy ) tashkil qilindi. Uning g'oyaviy rag'batlantiruvchisi va tashkilotchisi Klervo monastrining abbatি Bernar bo'ladi. Fransiya qiroli Lyudovik VII va german qiroli Kondrad III boshqargan salib yurishlari muvoffaqiyatsiz yakun topadi. Nemis salibchilarini Saljuqiylar Kichik Osiyoda tor-mor etsa , Fransiyaliklar Damashqni qamal qilib ololmay , Yevropaga qaytadilar. Yurishlar natijasiz tugashidan tashqari , Vizantiya orqali o'tgan salibchilar imperiya bilan uzaro munosabatlarni buzadilar.

XII asrning ikkinchi yarmida Misr , Suriya va Mesopotamiyaning bir qismi birlashadilar va bu yangi davlatni Sulton Salohiddin Ayubiy boshqargan. U 1187-yili salibchilar qushinini Tivernad kuli buyidagi jangda yengib, Quddusni oladi. Bu uchinchi salib yurushiga ( 1189- 1192-yy ) bahona bulib , unda Germaniya , Fransiya va Angliya feodallari qatnashadilar. Salibchilarga german imperatori Fridrix I Barbarossa , fransuz qiroli Filipp III Avgust va ingлиз qiroli Richard I Sheryurak yetakchilik qiladilar. Fridrix I ning Vizantiyaga nisbatan g'arazli niyyatlari bulib, uning Sharqdagi ashaddiy dushmani Ioniya sultonini bilan kelishuvga erishdi. Bunga javoban Vizantiya Salohiddinning o'zi bilan ittifoq tuzadi. Yurushlar qator omadsizliklar bilan boshlandi. Nemis salibchilari Falastinga yetib kelmasdan , Fridrix I tog'li Klikiya daryolaridan biridan o'tayotganda otdan yiqilib halok bulishi oqibatida , ular ortga qaytadilar. Fransiya va ingliz salibchilari butun yurishlari davomida o'zaro dushmanlik

munosabatida buldi. Falastinga yetib kelgan salibchilar Akra shahrini qamal qilib, uni faqat 1191-yili egallaydilar. Harbiy harakatlar avjiga chiqgan vaziyatda Philipp II Yevropaga qaytib , Richard I ga qarshi Genrix VI bilan ittifoq tuzadi. Richard I Quddusni qaytarishga urunsada , niyyatiga yetisha olmay, faqat Salohiddindan ayrim imtiyozga erishadi . [1]

XIII asrning bosqlarida papa Innokentiy II Yevropani yangi salib yurushlariga da'vat etadi. Bu to'rtinchi salib yurushi edi ( 1202-1204-yy ) . Bu salib yurushi o'ziga xos yurush bo'lib, bu salibchilik harakatining bosqinchilik mohiyatini ro'y – rost ochib bergen edi. To'rtinchi salib yurushi qatnashchilari Falastinga ham yetib bora olmadilar. Salibchilar bu safar turklarga yoki boshqa musulmonlarga qarshi yurush qilmay , balki xristianlar Vizantiyasiga yurush qiladilar. To'rtinchi salib yurishi tarixida ayniqsa venetsiyaliklar katta ro'l o'ynab, ularning yurish yunalishlarini o'zgartirib yuboradilar. Salibchilar rahbarlari Turkiya – Misr sultoniga qarashli Misrga yurish qilishni mo'ljallagan edilar, Misr bilan foydali savdo – sotiq olib borgan , lekin Vizantiyani kuchsizlantirishdan manfaatdor bo'lgan “ dengiz malikasi ” bo'l mish Venetsiya salbchilarning dastlabki yunalishlaridan qaytarib, o'zining savdodagi raqibi hisoblangan Vizantiyaga qarshi yullaydi. Vizantiyadagi alg'ov - dalg'ovlardan foydalangan salibchilar 1204- yilda Konstantinopolni bosib olib , Bolqon yarim orolining janubiy qismida Lotin imperiyasi degan yangi davlatga asos soladilar ( 1204-1261-yy ) . [3]

Beshinchi salib yurishlari ( 1217-1221-yy ) tashkilotchilari tinch yurish qatnashchilarining dastlabki rejalarini qandaydir amalga oshirmoqchi buldilar. Bu safar ular dastlab Falastinda urush harakatlarini olib bordilar , keyin ular bu urush harakatlarini Misrga kuchirdilar. Salibchilar Misrda Damieta shahrini bosib oldilar, lekin keyin muvaffaqiyatsizlikka o'chrash natijasida o'zlar qulga kiritgan Nil vodiysining bir qismini bushtib chiqishga majbur buladilar. Oltinchi salib yurishi ( 1228-1229-yy ) Fridrix I Barbarossaning neverasi - Fridrix II Shtaufenning Sharqqa qilgan yurishi edi. Ammo bus afar ham biror – bir arzigulik keng urush harakatlari olib borilgani yuq . Fridrix II kuch ishlatib emas , balki ko'proq diplomatic yul bilan Quddusni va boshqa ba'zi bir shaharlarni qaytarib olishga erishadi. Ammo tez orada ( 1244 – yilda ) turklar Quddusni yana qaytarib oladilar va xristianlar uni batamom quldan chiqaradilar. [2]

Ko'p o'tmay papa Innokentiy IV Misrga qarshi yettinchi salib yurishlarini ( 1248-1254-yy ) tashkil qildi. Uning ishtirokchilari asosan fransuz ritsarlari bo'lib , salibchilarga Fransyaning janubidagi shaharlarning Shimoliy Afrikadagi savdoda yetakchilagini mustahkamlash niyyatidagi qirol Lyudovik IX boshchilik qildi. Yurishlar butunlar muvoffaqiyatsizlikka o'chraydi. Sakkizinchi salib yurishlarining ( 1269-1270-yy ) natijasi ham shu tahliy yakunlanadi. Salibchilar Lyudovik IX boshchiligidagi Tunisga otlandilar. Lekin qo'shin sohilga tushganidan so'ng yuqumli kasallik tarqalib , qirolning o'zi ham halok bo'lad. [1]

Ko'p o'tmay salibchilarning Sharqdagi mulklari birin – ketin muslimmonlar qo'liga qaytadi. Salib yurishlari to'xtatilishining asosiy sababi XIII asrning oxirida G'arbiy Yevropa mamlakatlarida boshlangan o'zgarishlar bo'ldi. Ishlab chiqarish kuchlari o'sdi. O'rmonlar kesilib , ekinzorlarga aylantirila boshlanadi. Qishloq aholisining yersiz bir qismi tobora yuksalayotga shaharlarga ketadi. Qirol hokimyatining kuchaya boshlashi va mamlakatni markazlashtirish siyosati ritsarlarga qirol qo'shinida xizmat qilish imkonini yaratadi. Savdogarlar tinch yo'l bilan savdo-sotiq olib borishning afzalligiga yana bir bor ishonch hosil qiladilar. Salib yurishlari o'zining asosiy , ya'ni Sharqda kuchli xristian davlatini yaratish rejasiga erisha olmaydilar. Unda qatnashgan 100 minglab kishilar halok bo'lib, katta moliyaviy zarar ko'radilar. Lekin Sharqning yuksak madaniyati bilan tanishish Yevropa feodallari turmush tarzini keskin o'zgartiradi. Yevropa mamlakatlarida soliqlarni mahsulot bilan emas , pul bilan olish o'sib boradi. Ayrim feodallar qaram dehqonlarini to'lov evaziga ozodlikka chiqara boshlaydilar [4]

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Jahon tarixi ; Salimov T. U. ; Toshkent-2014
2. O'rta asrlar tarixi ; Semyonov V. F. ; Toshkent-1973
3. Jahon tarixi ; Uslubiy majmua ; Denov-2019
4. Jahon tarixi ; Hasanov F. S. ; Toshkent-2017